

**ELEKTRON BIZNES VA ELEKTRON TIJORAT (E-COMMERCE)****Abduqodirov Javohir Muzaffarevich**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,  
kechki va ikkinchi ta'lim fakulteti talabasi.<https://doi.org/10.5281/zenodo.20142576>

**Annotatsiya.** XXI-asr axborot texnologiyalar davrida, barcha sohalarni raqamlashtirish va elektron tizimga o'tayotgan bir vaqtda yangi yunalish va tushuncha sifatida ommoviy miqyosida jadalik bilan talab ortib borayotgan elektron tijorat (e-commerce) va elektron biznes barcha mamlakatlar, shular qatorida O'zbekistonda ham keng miqyosida qo'llanilmoqda. Shu sababli hozirgi kundagi dolzarb masala hisoblanmoqda.

Ushbu maqolada elektron biznes va elektron tijoratning davlat iqtisodiyoti, ish hajmining jadallashishi, mahsulot birligining ortish va yuqori foyda keltrish, talabning ortishiga sabab bo'ladigan SMM va Digital ads kabi strategik yo'llar orqali sohani rivojlantrish, shu bilan bir qatorda barcha sohadagidek bu sohadagi ham ba'zi muammoli holatlar borligiga qaramasdan maqolada berib o'tiladigan takliflar orqali muammolarni hal etishga erishish imkoni borligi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** e-Commerce, Online Shopping, Digital Economy, E-Payment Systems, Raqamli transformatsiya, Raqamli innovatsiyalar, SMM, Digital ads, Yuqori pul massasi.

**Kirish**

Ma'lumki hozirda davrda axborot texnologiyalar davri deb yuritiladi. Hozirgi kunda sohasi va yo'nalishidan qattiy nazar shu sohani raqamlashtirish va elektron tizim yaratishga qaratilgan say harakatlar kun sayin ortib bormoqda. Shu bilan bir qatorda tadbirkorlida tovor ayirboshlash jaroyonida ham buni qo'llashga bo'lgan talab yuqori natijalarga erishilmoqda.

Yaqin 5-10 yil moboyinda yanada takomillashib va qulaylik jihatdan yuqori natijalar qayd etilmoqda. Bunga misol tariqasida UZUM va YANDEX kabi programmalar bitta ilova ichida tovar va xizmatlar online tartibda taklif etiladi.

Bu online tarmoqda yagona tizim orqali birlashtirilgan, sizda faqatgina mobile telefon va internet bo'lsa yetarli va sizda bir mahsulot yoki xizmat turi bo'yicha ko'p tanlov bo'ladi, nafaqat siz sotib olishiz balki uni estalgan joyga va istalgan vaqtda yetkazib berish xizmatlari ham mavjud hisoblanadi.

Faqatgina sotib olish emas balki siz online sotish imkoniyatiga ega bo'lgan dasturlar hozirgi davrda kun sayin ortib takomillashib bormoqda. Internet orqali savdo sotiqlik jarayoni ikki tarafnamam anchagina foyda ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi, xaridor shaxs eng qimmatli onlayn mahsulotlardan biri vaqtdan yutish orqali qisqa vaqt moboyinda yuqori nafillikka erish imkoniyatiga ega bo'lsa biznismen esa ishchi xodimlarning kam va shu bilan birga yuqori pul massasiga erishishadi.

Hozirgi zamon talabidan kelib chiqan holda online bizneslar sirasiga savdo sotiqlik anchagina rivojlangan sababli siz AI (Artificial Intelligence) orqali avtomatlashtirish va jahon bozorida Tovar va xizmatlar taklif darjani oshirish natijasida biznes o'sishiga olib keladi.

Hozirda ma'lum tovar va xizmatlarni bir bozordan olib boshqasida sotish orqali yuqori foyda bo'lish imkoniyatiga ega bo'lish imkoniyati yuqori, qolaversa siz o'z online biznesini SMM va Digital ads lar orqali rivojlantrish va davomiy qilish imkoniyatlariga ega bo'lasiz. Shu sabablarga ko'ra hozirda Online biznes va e-commerce yaqin kelajakda manfatli va imkoniyat jihatdan yuqori biznes sirasiga kiradi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Hozirgi ahborot texnologiyalar rivojlanishi jaddalik bilan ortib borish va har bir turdagi sohalar va yo'nalishlar bilan bir qatorda elektron savdo tizimini yanada mukammallashtirish va unga bo'lgan talablarni tez fursatda ortishi zamonaviy texnologiyalar yordamida va masofadan oldi sotdi jaryoni ham muhim ahamiyat kasb etishini yaqqol namayondasi.

Aynan shu turdagi ishlarni qilish davomidagi muommolar va tahlikali holatlarni oldini olish va shu bilan birga qilinyotgan say harakatlar orqali Internet va IT texnologiyalri orqali mahsulot va xizmatlarni tezkorlik bilan ayirboshlash va sotish jarayonlari orqali iste'molchilar uchun qulaylik, tezlik va global bozorga kirish imkonini yaratadi.

Bu B2B, B2C, C2C va boshqa birqancha tarmoqlarda o'z namoyandasini topmoqda [1].

Bu boradagi ishlarni O'zbekistonlik bir qator olim mutaxassislar ham o'z fikrini bildirib o'tgan. Yaqin kelajak uchun qo'yilgan rejalar ning bir qismida elektron tijorat infratuzilmaviy holatni yaxshilash va riovlantrish ko'zda tutilgan va bu o'z samarasini bermoqda.

2022-yil elektron tijorat hajmi 1,8 barobar oshganligi va 10886,8 mlrd so'mni tashkil etganligi bu boradagi isglar o'z samarasini berayotganligini yaqqol namayondasi [2]. E-business kengroq tushuncha bo'lib, marketing, mijozlar bilan munosabat, resurslarni boshqarish, trening va HR jarayonlarini ham qamrab oladi.

E-commerce esa faqat tovar va xizmatlar savdosiga taalluqli, va bu ishlarni bir qancha onlayn ish olib boradaigan Amazon, Alibaba, Google, Facebook kabi platformalar iqtisodiy miqyos samarasi va tarmoq effektlari orqali "winner-take-all" iqtisodiyoti yaratmoqda.

Amazon, Alibaba, Google, Facebook kabi platformalar iqtisodiy miqyos samarasi va tarmoq effektlari orqali mamlakatlarda "winner-take-all" iqtisodiyoti yaratmoqda [3].

Elektron savdo tizimida asosiy omillardan biri bu hsisobotlar va platformaning xavfsizlik darajasi hisoblanadi.

Shu sababga ko'ra SSL/TLS shifrlash, ko'p faktorli autentifikatsiya, to'lov shlyuzlari, fayervollar, IPS/IDS tizimlari mu muammolarni yechiga yordam beradi. Shu bilan birga davlatning ichki qonun qoidalargi mos kelishi zarur.

O'zbekistonda "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qonunchilik mavjud, ammo bo'shliqlar bor. PCI DSS kabi xalqaro standartlarga moslash zarur [4].


Elektron alaoqalar orqali savdo tizimini yaratish Shaffoflik, korrupsiyani kamaytirish, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, va raqobat muhitini kuchaytirish imkonini beradi.

Shu bilan birga undagi hududiy tengsizlik (chekka hududlardagi tadbirkorlar uchun texnik qiyinchiliklar), tender shartlarining ba'zan subyektiv yozilishi, platformalarning cheklangan funksionalligi, kadrlarning raqamli savodxonligi pastligi kabi salbiy tarafdarga ega [5].

Shunga qaramasdan zamon rivohlanishi va davlat tomonidan taqdim etilyotgan imkonyatlar natijasida chikka hududlarda internetgsa bog'lanish imkoniyatlari yaratilishii orqali bu muammoli vaziyat barham topadi.

### **Tahlil va natijalar**

Elektron tijorat o'zbekistonda ham keng qamrovli bo'layotganligini quydagi ma'lumotlar asosida ko'rishimiz mumkin.



### 1-rasm. Onlayn savdo va xizmatlar\*

muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Rasmda ta'svirlangan ma'lumotlar asosida shuni aytish joziki 2020- yilga kelib pandemiyadan so'ng electron savdo tizimida keskin 0,4 barobar tushush ro'y bergan. Ammo keskin chora tadbirlar natijasida bir yilning o'zida bu ko'rsatkich 1,6 barobar o'sish samarasini berdi va bu holat davomli tarzda harakatlanmoqda. Undan so'ng 2022-yil 0,4 barobar, 2023-yil 1,1 baroabae va 2024- yilga kelib bu ko'rsatkich 1,2 barobarni ko'rsatmoqda.

#### Xulosa

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda savdo va xizmatlar natijasini oshirish umumiy pul aylanmasi haqidagi aniq ma'lumotlarga ega bo'lish, shu bilan berga bir gina xavsizligi va davlat standartlariga javib beradigan qulay app lar orqali onlayn savdolarni amalga oshirish tezkor buyurtmalarni qabul qilish va yetkazish kabi ishlar natijasida davlat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir o'tkazish imkonini yaratadi.

Davlatdagi korupsion holatlarni oldini olish ko'p vaqt sarflamasdan buyurtma qilish buning natijasida vaqtni tejash birgina telefon va internet orqali ammallarni bajarish texnologilar asrining yana bir qulaylik darajasi ekanligi o'z aksini topadi.

Chikka va internet aloqasi yaxshi bo'lmagan hududlardagi tahlikali vaziyatni davlat tomonidan qilinayotga chora tadbirlar natijasi bu muammo o'z yechimini topadi. Shu tamoyillarga asosan istimolchi va tadbirkorlar o'rtasida electron tejaratga bo'lgan talab jaddalik bilan ortib bormoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jain, V., Malviya, B. I. N. D. O. O., & Arya, S. A. T. Y. E. N. D. R. A. (2021). An overview of electronic commerce (e-Commerce). *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*, 27(3), 666.
2. Suyarov A.M. O'zbekistonda internetdagi savdo imkoniyatlari. *Journal of Science, Research and Teaching*. Vol. 4, No. 12, Dec - 2025 ISSN: 2181-4406. –B. 11-15. <https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/934>
3. Moriset B. e-Business and e-Commerce. – 2018.

4. Shuxrat o'g'li Y. S. et al. ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARINI JORIY ETISHDA KIBERXAVFSIZLIK MUAMMOLARINI HAL ETISH ISTIQBOLLARI //TADQIQOTLAR. – 2025. – T. 75. – №. 5. – C. 233-238.
5. Rustam o'g'li N. F. DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA ELEKTRON SAVDOLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI //YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 44-47.